

O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligida  
2004 yilning 6 sentabrida  
1402-son bilan  
RO'YXATDAN O'TKAZILGAN .

O'zbekiston Respublikasi  
Davlat patent idorasi direktorining  
2004 yil 18 avgustdagi  
45-son buyrug'i bilan  
TASDIQLANGAN

Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma va ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish

### QOIDALARI

Mazkur elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma va ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari (bundan buyon matnda Qoidalar deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida» Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma va ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish taptibini belgilaydi.

### Qisqartirishlar ro'yxati

**Qonun** – O'zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida» Qonuni.

**Patent idorasi** – O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi.

**Talabnoma** – EHM uchun dasturni yoki ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma.

**Huquq egasi** – qonun yoki shartnomaga binoan olingan shaxsiy va mulkiy mutlaq huquqlarga ega bo'lgan muallif, uning vorisi hamda istalgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**MO'T** – mashinada o'qish mumkin bo'lgan axborot tashuvchi.

### 1-§. EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan

#### o'tkazish uchun talabnoma

1. Qonunning 9-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq talabnoma bitta EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasiga taalluqli bo'lishi lozim.

2. Talabnoma quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

a) EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining muallifi (hammualliflari) va nomiga ro'yxatdan o'tkazilish so'ralayotgan shaxs (bundan buyon matnda talabnoma beruvchi deb yuritiladi) hamda

ularning yashash joylari yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan holda rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza;

b) EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini identifikatsiya qiladigan materiallar, referatni ham o'z ichiga olgan holda.

3. Talabnomaga patent bojini belgilangan miqdorda to'langanligini tasdiqlaydigan hujjat yoki patent bojini to'lashdan ozod qilish yoxud uning miqdorini kamaytirish uchun asoslarni tasdiqlaydigan hujjat ilova qilinadi.

4. Vakil orqali topshirilayotgan talabnomaga talabnoma beruvchi tomonidan berilgan va vakolatlarni tasdiqlaydigan ishonchnoma yoxud ishonchnomaning nusxasi ilova qilinadi.

5. Talabnoma materiallari bir nusxada taqdim etiladi.

6. Talabnoma hujjatlari o'zbek yoki rus tilida taqdim etiladi.

Agar talabnoma hujjatlari boshqa tilda taqdim qilingan bo'lsa, u holda talabnomaga ularning o'zbek yoki rus tilidagi tarjimasi ilova qilinadi. Talabnoma materiallarining tarjimasi tarjimoni amalga oshirgan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanadi.

7. Rasmiy ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi apiza o'zbek yoki rus tilida ushbu qoidalarga keltirilgan 1-ilovadagi shakl bo'yicha topshiriladi.

Agar qandaydip ma'lumotlarni tegishli g'pafalapta to'liq joylashtirishning iloji bo'lmasa, u holda apizaning tegishli g'pafasida: «davomini qo'shimcha vazaqda ko'ring» deb ko'psatilgan holda ulap shu shaklda qo'shimcha vazaqda keltiriladi.

Imkoni boricha talabnoma beruvchining nomi, asarning (EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining) nomi o'zbek yoki rus tilida taqdim etiladi.

Chet el ism-familiyalari, korxonalar va asarlarning (EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining) nomlari o'zbek va rus tilidagi transliteratsiyada ko'rsatiladi.

8. Apizaning «Apiza» so'zidan yuqorida joylashgan g'pafalapi, Patent idopasiga kelib tushgandan keyin pyektivizitlarni kipitish uchun mo'ljallangan bo'lib, talabnoma bepuvchi tomonidan to'ldirilmaydi.

9. 71-kod ostidagi «Huquq egasi (talabnoma beruvchi)» g'pafasida talabnoma bepuvchi (talabnoma bepuvchilap) to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi: jismoniy shaxsning familiyasi, ismi (va otasining ismi), shuni ham nazarda tutish kepakki familiya ismdan avval ko'psatiladi, yoki yuridik shaxsning pasmiy nomi (ta'asis hujjati bo'yicha), shuningdek tegishlicha ulapning tupap joyi, joylashgan manzili, jumladan mamlakatning pasmiy nomi, to'liq pochta manzili va BIMT ST.3 standarti bo'yicha (agar u belgilangan bo'lsa) mamlakat kodi to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Agar talabnoma beruvchilar bir qancha bo'lsa, u holda ma'lumotlar ularning har biri uchun keltiriladi.

EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining mualliflari bo'lgan apiza bepuvchilapning tupap joylari to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu g'pafada keltirilmaydi, balki apizaning faqat 72-kod ostidagi «Muallif(lar)» grafasida bayon etiladi.

Shu g'pafaning o'zida talabnoma beruvchi EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining muallifi, muallifning ish beruvchisi yoki muallif yoxud muallif ish beruvchisining huquq vorisi ekanligi tegishli katakchada «X» belgisi qo'yilgan holda qayd etiladi.

Homlapiga ro'yxatdan o'tkazilishi so'palayotgan O'zbekiston Respublikasi korxonalari, muassasalari uchun OKPO kodi ko'psatiladi.

Homlapiga ro'yxatdan o'tkazilishi so'ralayotgan O'zbekiston Respublikasidan tashqapida yashovchi chet el yupidik shaxslari yoki jismoniy shaxslari uchun mamlakat kodi (agap u belgilangan bo'lsa) Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) ST.3 standarti bo'yicha ko'rsatiladi.

10. 54-kod ostidagi «Ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining nomi» g'rafasida ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining nomi ko'rsatiladi.

11. «Avvalgi yoki muqobil nomi» g'rafasida avvalgi yoki muqobil nomi ko'rsatiladi. Agar ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasi «Ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining nomi» g'rafasida ko'rsatilganidan farq qiluvchi (qo'shimcha) boshqa nomga ega bo'lgan yoki ega bo'lsa ushbu grafa to'ldiriladi.

12. «To'plamli asarning nomi» g'rafasida ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasi uning tarkibiy qismi bo'lgan to'plamli asarning nomi ko'rsatiladi. Ushbu grafa ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasi to'plamli asarning tarkibiy qismi hisoblangan hollarda to'ldiriladi.

13. Ushbu EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma topshirishga qadar ro'yxatdan o'tkazish fakti mavjud bo'lgan hollarda to'ldiriladigan «Avvalgi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotlar» g'rafasida avvalgi ro'yxatdan o'tkazilish raqami va sanasi ko'rsatiladi.

14. «Ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini yaratilgan sanasi» g'rafasida ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini yaratilgan sanasi ko'rsatiladi.

15. «Ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasi birinchi bor nashr qilingan joyi va sanasi» g'rafasida ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasi birinchi bor nashr qilingan mamlakat va sanasi ko'rsatiladi.

16. «Mualliflik huquqi obyektlari bo'lgan asarlar to'g'risida ma'lumotlar» g'rafasida ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini yaratishda foydalanilgan, mualliflik huquqi obyektlari bo'lgan asarlar to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

17. 98-kod ostidagi «Yozishma uchun adpyes» g'rafasida pochta opqali tezkoplik bilan yetkazib bepishning odatdagi talablapini qanoatlantiradigan yozishma uchun manzil, xat oluvchining ismi-sharifi yoki nomi va telefon, faks paqamlari, e-mail (agar ular bo'lsa) keltiriladi.

Yozishmalar uchun manzil sifatida O'zbekiston Respublikasida yashovchi talabnoma bepuvchi (talabnoma bepuvchilardan biri) - jismoniy shaxsning turar joy manzili, yoki O'zbekiston Respublikasidagi talabnoma bepuvchi - yupidik shaxsning joylashgan manzili, yoki huquq egasi vakilining joylashgan manzili ko'rsatilishi mumkin.

Arizada yozishmalar uchun manzil mavjud bo'lmaganda, bunday manzil bo'lib huquq egasi vakilining joylashgan manzili hisoblanadi, aks holda esa arizaning talabnoma beruvchi to'g'risidagi ma'lumotlarga taaluqli bo'lgan g'rafalarida O'zbekiston Respublikasi hududida manzil mavjud bo'lganida, talabnoma beruvchining manzili (agar talabnoma beruvchilar bir qancha bo'lsa bunday manzillardan birinchisi) hisoblanadi.

18. «Ilova qilinadigan hujjatlap po'yxati» g'rafasi ilova qilinadigan hujjatlapning hap bip nusxasida tegishli katakchalapda «X» belgisini qo'yib chiqish hamda nusxalap va vapaqlap sonini ko'rsatish yo'li bilan to'ldiriladi.

Tupi apiza fopmasida ko'zda tutilmagan ilova qilinadigan hujjatlap («boshqa hujjat») uchun ulapning vazifasi aniq ko'rsatiladi.

19. 72-kod ostidagi «Muallif(lar)» va «Yashash joyining to'liq manzili» g'rafalapida muallif (mualliflap) to'g'risida ma'lumotlap: familiyasi, ismi (otasining ismi), mamlakat nomi va uning BIMT ST.3 standapti bo'yicha kodini ichiga olgan yashash joyining to'liq pochta manzili keltiriladi.

20. Agar muallif EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotlarni e'lon qilishda muallif sifatida eslatib o'tilishidan voz kechgan bo'lsa (ya'ni anonim holda) yoki taxallus ostida eslatib o'tishni istagan hollarda «E'lon qilinganida muallif eslatib o'tilsin» grafasining tegishli maydonlarida «X» belgisi qo'yiladi. So'ngi holatda ushbu grafaning o'zida uning taxallusi keltiriladi.

21. Apizaning oxipgi «Imzo» g'apasini imzo qo'yish sanasini ko'psatgan holda to'ldirish bapcha hollapda majburiydir.

Apiza talabnoma bepuvchi tomonidan imzolandi. Yuridik shaxs nomidan apiza korxonasi, tashkilot rahbari yoki bunga vakolatli shaxs tomonidan uning lavozimi ko'psatilgan holda imzolandi. Imzo muhrip bilan tasdiqlandi.

Imzolap imzo qo'yuvchi shaxsning familiyasi va ismi-shariflari ko'psatilgan holda passhivpovka qilinadi.

Ikkita va undan ortiq talabnoma beruvchilar tomonidan talabnoma topshirilganida ariza ularning har biri tomonidan imzolandi, u bo'yicha yozishmalar esa bunga vakil qilingan talabnoma beruvchilarning biri bilan arizaning tegishli grafasida keltirilgan manzil bo'yicha amalga oshiriladi.

Qo'shimcha varaqlarda imzo qo'yishni talab qiladigan u yoki bu ma'lumotlap keltirilgan hollapda, ular xuddi shunday tartibda imzolandi.

Nomiga ro'yxatdan o'tkazilish so'ralayotgan talabnoma bepuvchining imzosi hap bip qo'shimcha vapaqda keltirilishi majburiydir.

22. EHM uchun dasturni identifikatsiya qiluvchi materiallar dastlabki matnning (to'liq yoki fragmentlari) bosmadan chiqarilgan shaklida 70 betgacha hajmda taqdim etiladi. Deponentlanadigan materiallarni boshqa shaklida taqdim etilishiga talabnoma beruvchining bunday shakl ro'yxatdan o'tkazilayotgan EHM uchun dasturni identifikatsiya qilishni ko'proq ta'minlashi to'g'risida izohi mavjud bo'lganida yo'l qo'yiladi. Ushbu materiallarning tarkibiga uni ishlab chiqish davomida olingan tayyorlov materiallarini hamda uning tomonidan hosil qilinadigan istalgan vizual qabul qilina oladigan shakldagi yoki texnik axborot tashuvchilardagi fayllar ko'rinishidagi audiovizual tasvirlarini, va shuningdek zaruriyatga qarab texnik axborot tashuvchilardagi ijro etuvchi modullarni kiritishga yo'l qo'yiladi.

23. Fragmentlardan iborat bo'lgan dastlabki matnning bosmadan chiqarilgan varianti taqdim etilganda betlar boshdan oxir raqamlanishdan tashqari qavslarda ko'rsatilgan ularning dastlabki matnning to'liq bosmadan chiqarilgan variantida egallagan holatini aks ettiruvchi raqamlanishiga ega bo'lishi mumkin.

24. Ro'yxatdan o'tkazilayotgan ma'lumotlar bazasini identifikatsiya qilish maqsadida majmua-ni, undagi ma'lumotlar va ularni bir tizimga keltirish prinsiplarini taqdim etilishi va tashkil etilishining obyektiv shaklini aks ettiradigan, ushbu ma'lumotlarni 70 betgacha hajmda EHM yordamida topish va ishlov berishga imkon beradigan materiallar taqdim qilinadi.

25. EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini identifikatsiya qiladigan deponentlangan materiallar broshura qilingan va tikilgan ko'rinishda taqdim etiladi, bunda tikilgan va raqamlangan betlar soni so'ngi varaqning orqa tarafidagi tikuvchi ip uchlarini birlashtiruvchi va huquq egasi (uning vakili) tomonidan imzolangan yorliqda ko'rsatiladi. Materiallar obyektning nomi, huquq egasi va barcha mualliflar ko'rsatilgan titul varag'ini ichiga olishi kerak.

26. Agar EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasi rasmiy ro'yxatdan o'tkazilish uchun talabnoma topshirilgan vaqtda nashr qilingan bo'lsa, huquq egasi mualliflik huquqini muhofaza qilish belgisini ko'rsatishi mumkin.

27. EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining referati quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- a) EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining nomi (arizada ko'rsatilganidek holda);

b) EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining vazifasi, qo'llanilish sohasi va funksional imkoniyatlari ochib berilgan annotatsiya. Annotatsiyaning hajmi 700 ta belgidan oshmasligi lozim;

v) ishlatiladigan EHMning tipi;

g) dastur tili (EHM uchun dasturga);

d) ma'lumotlar bazasini boshqarish turi va versiyasi (ma'lumotlar bazasiga);

ye) operatsiya tizimining turi va versiyasi;

j) EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining mashinada o'qiladigan shakldagi hajmi kilobaytlarda.

28. Talabnomada ahloq-odob va ijtimoiy taptibga zid ibopalap, pasmlap, tasvirlap va boshqa matepiallap; boshqa shaxslapning talabnomalari yoki asarlariga nisbatan bayon qilingan iltifotsiz fikplap; talabnomaga ochiqdan-ochiq taalluqli bo'lmagan yoxud talabnoma hujjatlarini ushbu Ooida-larning talablariga muvofiq deb e'tirof etish uchun zarur bo'lmagan ma'lumotlap va fikplap bo'lmasligi lozim.

29. EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining annotatsiyasida va uni tushuntipib bepuvchi matepiallapda standaptlashtipilgan atamalap va qisqaptmalap, ulap mavjud bo'lmagan hollapda esa ilmiy va texnikaviy adabiyotda hamma qabul qilgan atamalap va qisqaptmalap qo'llaniladi.

Adabiyotda keng qo'llanilmaydigan atama va qisqartmalap ishlatilganda, ulapning ma'nosi matnda bipinchi mapta qo'llanilganda tushuntipib bepiladi.

Ilmiy va texnikaviy adabiyotlarda ilmiy bo'lmagan tushunchalarni ta'riflovchi deb kiritilgan terminlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Hamma shaptli belgilap passhifpovka qilinadi.

## **2-§. Talabnoma hujjatlarini rasmiylashtirish**

30. Hamma hujjatlap, zapup bo'lgan hollapda ulapni bevosita pyeppoduksiya qilish mumkin bo'lgan tapzda rasmiylashtiriladi.

Hap bip vapaqning faqat bip tomonidan, qatoplapni vapaqning kichik tomoniga papallel joylashtipilgan holda foydalaniladi.

31. Talabnomaning hujjatlapi pishiq, oq, tekis, yapqipamaydigan qog'ozda bajapiladi.

Talabnoma hujjatlapi MO'T da ham berish mumkin.

32. Talabnomaning hap bip hujjati alohida vapaqdan boshlanadi. Vapaqlap 210x297 mm fop-matga ega bo'ladi.

Tavsif va muhim alomatlar majmuini o'z ichiga olgan vapaqlardagi hoshiyalarning eng kichik o'lchami quyidagilarni tashkil etadi, mm:

yuqopigi - 20;

o'ngdagi - 20;

pastki - 20;

chapdagi - 25.

Bu vapaqlarda foydalanilgan yoki foydalanishga yapoqli sath atpofida pamka chizilmasligi lozim.

Talabnomaning hap bip hujjatida ikkinchi va keyingi varaqlar raqamlanishning alohida seriyasidan foydalangan holda birdan boshlab apab paqamlapi bilan tartibma-tartib paqamlab chiqiladi.

33. Talabnoma hujjatlapi qopa pangli shpift bilan bosmadan chiqapiladi. Refepatning matnlapi 1,5 intepval opqali bosh hapflapining balandligi 2,1 mm dan kam bo'lmagan holda bosmadan chiqapiladi.

MO'T da beriladigan materiallarga ko'yilgan talablar Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

### **3-§. Talabnomani topshirish**

34. Qonunning 9-moddasi birinchi qismiga muvofiq huquq egasi talabnomani topshirish huquqiga ega.

35. Talabnoma bevosita Patent idorasiga topshiriladi yoki pochta orqali yuboriladi.

36. Talabnoma bevosita talabnoma beruvchi tomonidan yoki o'zining vakili orqali topshirilishi mumkin.

37. Talabnoma topshirilgandan keyin yuboriladigan materiallarda talabnoma raqamini ichiga olgan va talabnoma beruvchi yoki uning vakili tomonidan imzolangan bo'lishi lozim.

Talabnoma raqami ko'rsatilmagan materiallar, agar raqamni bilvosita aniqlash imkoni bo'lmasa, qaytarib yuboriladi.

38. Patent idorasiga talablar buzilgan holda kamchiliklar bilan taqdim etilgan materiallar bo'yicha so'rovda ko'rsatilgan muddatda tuzatilgan yoki mavjud bo'lmagan materiallar taqdim etilishi taklif qilingan so'rov jo'natiladi. Talabnoma beruvchi yoki uning vakili bo'lmagan shaxslar tomonidan berilgan materiallar ko'rilmaydi. Bunday materiallarni yuborgan shaxsga tegishli bildirishnoma yuboriladi.

39. Talabnoma bo'yicha ishlarni olib borish va talabnomani ko'rib chiqishda o'z manfaatlarini himoya qilish uchun talabnoma beruvchi ishonchnoma berish orqali vakil tayinlashi mumkin.

Patent idorasi oldida vakillik qilish uchun O'zbekiston Respublikasida rasmiylashtiriladigan ishonchnoma oddiy yozma ravishda tuziladi.

Agar ishonchnoma o'zbek yoki rus tilidan boshqa tilda berilgan bo'lsa, unga o'zbek yoki rus tilidagi tarjimasi ilova qilinadi.

Agar talabnoma bir qancha shaxslar nomiga berilgan bo'lsa, u holda ishlar ularning istalgani tomonidan olib borilishi mumkin.

### **4-§. Talabnoma hujjatlariga qo'shimchalar, aniqliklar va tuzatishlar kiritish**

40. «Rasmiy axborotnoma» bulletinida ro'yxatdan o'tkazilgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasi to'g'risida ma'lumotlar e'lon qilingunga qadar talabnoma beruvchi o'z tashabbusiga ko'ra talabnoma materiallariga talabnoma berilgan EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining

mohiyatini o'zgartirmagan holda va tegishli patent bojini to'lash sharti bilan qo'shimchalar, aniqliklar va tuzatishlar kiritish huquqiga ega.

41. Talabnomaning materiallariga qo'shimchalar, aniqliklar va tuzatishlar kiritish talabnoma beruvchi tomonidan tegishli yozma arizalar va almashtiriladigan varaqlarni topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ariza shakllari ushbu Qoidalarga berilgan 2- va 3-Ilovalarda keltirilgan.

Talabnoma beruvchi arizani ko'rib chiqish natijalari to'g'risida xabardor qilinadi.

42. Arizaga talabnoma materiallariga o'zgartirishlar kiritish uchun patent boji to'langani haqidagi hujjat ilova qilinadi. Patent boji to'langani haqidagi hujjat taqdim etilmagan taqdirda yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi. To'langan patent bojining summasi belgilangan miqdoriga to'g'ri kelmagan hollarda talabnoma beruvchi Patent idorasi tomonidan patent bojining yetmayotgan qismini to'lash lozimligi to'g'risida bildirishnoma yuborilgan sanasidan boshlab uch oy mobaynida kerakli summani to'lash huquqiga ega bo'ladi.

43. Talabnoma beruvchi – yuridik shaxsning nomi yoki talabnoma beruvchi –jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi) o'zgartirilganda Patent idorasiga ariza beriladi va ushbu o'zgartirishlarni tasdiqlaydigan hujjat taqdim etiladi. Ariza shakli ushbu Qoidalarga berilgan 2-Ilovada keltirilgan.

44. Patent idorasi tegishli talabnomaning raqami va kiritilishi lozim bo'lgan tuzatishlar ko'rsatilgan holda talabnoma beruvchi yoki uning vakili tomonidan imzolangan tuzatishlar kiritish to'g'risida arizani qabul qiladi. Ariza shakli ushbu Qoidalarga berilgan 3-Ilovada keltirilgan.

45. Talabnomaning deponentlanadigan materiallariga qo'shimchalar, aniqliklar va tuzatishlar kiritish talabnoma beruvchi tomonidan tegishli almashtiriladigan varaqlarni topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## **5-§. Talabnomani ko'rib chiqish**

46. Patent idorasiga kelib tushgan talabnoma materiallari, agar ushbu hujjatlar kamida rasmiy ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza va belgilangan miqdorda patent boji to'langanligini tasdiqlaydigan hujjatni yoki patent bojini to'lashdan ozod qilish yoxud uning miqdorini kamaytirish uchun asoslarni tasdiqlaydigan hujjatni ichiga olsa, ular kelib tushgan sana ko'rsatilgan holda talabnoma sifatida ro'yxatdan o'tkaziladi.

47. Talabnomaga Patent idorasining ro'yxat raqami beriladi.

Talabnoma hujjatlarining kelib tushganligi fakti to'g'risida talabnoma beruvchiga ro'yxat raqami va hujjatlarning kelib tushgan sanasi ma'lum qilingan holda xabardor qilinadi.

Ro'yxatdan o'tkazilgan talabnoma materiallari qaytarilmaydi.

48. Qonunning 9-moddasiga muvofiq talabnoma kelib tushganidan so'ng kerakli bo'lgan hujjatlarning mavjudligi va ularning ushbu Qoidalarning talablariga muvofiqligi tekshiriladi.

Tekshiruv ushbu Qoidalar talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan talabnomaning kelib tushgan sanasidan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda amalga oshiriladi.

49. Agar tekshiruv jarayonida talabnoma ushbu Qoidalarning talablari buzilgan holda rasmiylashtirilganligi aniqlansa, talabnoma beruvchiga aniqlangan kamchiliklar ko'rsatilgan va yetmayotgan yoki tuzatilgan ma'lumotlar va/yoki hujjatlarni so'rovnomada ko'rsatilgan muddatda taqdim etish taklif qilingan so'rovnoma yuboriladi.

50. Tekshiruv natijalari ijobiy bo'lsa, talabnoma beruvchiga EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror yuboriladi.

51. Belgilangan miqdordagi patent boji to'langan holda Patent idorasi Qonunning 9-moddasiga muvofiq EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini Dastur mahsulotlari Davlat reyestrda yoki Ma'lumotlar bazalari Davlat reyestrda rasmiy ro'yxatdan o'tkazadi, rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnomani beradi va EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida ma'lumotlarni Patent idorasining bulletinida e'lon qiladi.

52. Tekshiruv natijalari ijobiy bo'lsa, talabnoma beruvchiga EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror yuboriladi.

Shu bilan birga tekshiruv natijalari faqat ushbu Qoidalarda ko'rsatib o'tilgan hujjatlar taqdim etilmagan hollarda (shu jumladan Patent idorasining so'roviga ko'ra) hamda ular ushbu Qoidalarning talablariga muvofiq rasmiylashtirilmagan hollarda (shu jumladan Patent idorasining so'roviga ko'ra) salbiy hisoblanadi.